


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

O'quv ishlar bo'yicha prorektor
S. Normamatov



**“DIALEKTOLOGIK AMALIYOT”
DASTURI**

(II kurs)

Bilim sohasi: 200 000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi: 230 000 – Tillar
Ta’lim yo’nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o’qitish (o’zbek tili)

TOSHKENT – 2022

“Dialektologik amaliyot” dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 25-avgust tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchilar :

F.I.SH	Lavozimi
M. Rahmatov	“Folklorshunoslik va dialektologiya” kafedrasidagi dotsenti, f.f.n.
Z. Xidraliyeva	“Folklorshunoslik va dialektologiya” kafedrasida o‘qituvchisi


Taqrizchilar:

F.I.SH	Ish joyi va lavozimi
S. Ashirboyev	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU professori, filologiya fanlari doktori
Z. Xolmonova	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU professori, filologiya fanlari doktori

“Dialektologik amaliyot” dasturi Folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasining 2022-yil 26-avgustdagi 1-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya qilingan.

ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi
fakulteti dekani

2022-yil 21-avgust




(imzo)

B. Abdushukurov

Folklorshunoslik va dialektologiya
kafedrasini mudiri

2022-yil 23-08



(imzo)

S. Ashirboyev

AMALIYOTNING O'TKAZILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Dialektologik amaliyot talabalarning muayyan bir sheva vakili bilan jonli muloqotga kirishib, undan shu shevaga xos bo'lgan xususiyatlarni yozib olish va shu orqali o'zbek shevalari to'g'risidagi nazariy bilimlarini mukammallashtirishdan iborat. Shuningdek, yurtimiz hududlarida mavjud sheva hamda lahja materiallarini, xalq og'zaki ijodi namunalari dialektal matn sifatida to'plash, to'plangan amaliyot ma'lumotlarini ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish orqali dastlabki tadqiqotchilik amaliy ko'nikmalarini shakllantiriladi. To'plangan amaliyot ma'lumotlarini uslubiy tizimlashtirib, arxiv fondiga topshirish vazifalarini bajarishga o'rgatadi.

Dialektologik amaliyoti bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Bunda:**

-talabalarda sheva materiallarini farqlashi va ularni matn sifatida yozib olishlari, yozib olingan matnlarning mukammallik darajasi ko'nikmalarini shakllanganligi;

-talabalar o'rganilayotgan shevaning xususiyatlarini, qaysi lahjaga kirishini, sheva vakillari bilan suhbatlashish, sheva xususiyatlarini suhbatdoshlaridan ajratib olish, sheva matnlarini so'zlovchi gapirayotgan vaqtda yozib olish kabi bilimlarining *shakllanganligi*;

-talabalarning dialektal matn ustida ishlash imkoniyatlari, transkripsiya va transliteratsiya jarayonlarini farqlab, amalda qo'llashlari, yozib olingan dialektal matnlarga ishlov berish haqidagi bilim va *ko'nikmalarga ega bo'lishi*;

-talabalar o'rganilgan sheva vakillaridan yozib olingan dialektal matnlarni ilmiy tadqiqqa tortish, ma'lum bir xulosalarga kelish *matakulariga ega bo'lishi kerak*.

O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI" FANIDAN AMALIYOT DASTURI

KIRISH

Amaliyot turi	2-kurs		
	Haftalik miqdori	Umumiy soat	Semestr
Dialektologik amaliyot	4	120	4

Amaliyotning mazmuni. Fandagi nazariy fikrlar amaliy jarayonlarda, xususan, malakaviy amaliyot davrida isbotini topadi. Shuning uchun, o'quv jarayonining nazariy bosqichi va amaliy bosqichi haqida gapirish o'rinni. Shu ikki jarayonni ta'lim olish jarayonida tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lgan talabalar ertaga iste'dodli mutaxassislar darajasiga ko'tarilishi shubhasiz. Shu sababli O'zR Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor

vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan "yuksak darajaga keltiramiz". deb bekorga aytmagan¹.

Mazkur malakaviy amaliyotga 2 hafta vaqt ajratilgan.

Mazkur amaliyotning maqsadi – talabalarning muayyan bir sheva vakili bilan jonli muloqotga kirishib, undan shu shevaga xos bo'lgan xususiyatlarni yozib olish va shu orqali o'zbek shevalari to'g'risidagi bilimini mukammallashtirish hamda ularda tadqiqotchilik malakalarini shakllantirish. Sheva materiallarini yozib olish asosida dialektal so'zlarning turli guruhlarini yig'ib olish. DLni tuzish (DL – dialektal lug'at ma'nosini anglatadigan qisqartma so'z).

Shu maqsaddan kelib chiqib "Dialektologik amaliyot"ning quyidagi vazifalari bor:

1. Talabalarga o'rganilayotgan sheva vakillari bilan shevani o'rganish uchun maxsus tuzilgan savollar majmui asosida suhbatlashishning malaka va ko'nikmasini berish.

2. O'rganilayotgan shevaning xususiyatlarini amalda tushuntirish. singdirish.

3. Shevaning fonetik xususiyatlarini sheva materiallari asosida asoslash.

4. Sheva vakilining nutqini transkripsiyada qayta yozish malakasini shakllantirish.

5. Shevaning leksik-semantik xususiyatlarini sheva materiallari asosida ko'rsatish.

6. Shevaning leksik xususiyatlariga tegishli misollarni yig'ish.

7. Shevaning so'z yasashiga xos xususiyatlarini dalillash.

8. O'rganilayotgan shevaning so'z yasashiga tegishli dialektal misollarni to'plash.

9. Shevaning morfologik xususiyatlarini sheva materiallari asosida bayon etish.

10. Sheva materiallari asosida shevaning sintaktik xususiyatlarini ko'rsatish.

11. Sheva so'zlarining adabiy tilda qo'llanmasligini asoslash.

12. Bir shevani ikkinchi bir sheva bilan qiyoslab o'rganish imkoniyatiga ega bo'lish.

13. Shevaning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini dalillash.

14. Shevalar milliy tilimizning asosi ekanligini talabalar tushunishi va ular ko'nglida shevalarga nisbatan hurmat hissini kuchaytirish.

Dialektologik amaliyot bo'yicha talabalar bilimi va bajariladigan ishlarga qo'yiladigan talablar:

– talabalar texnik vositalar bilan ishlay olishi, amaliyot o'tkaziladigan tuman aholisining etnik tarkibi, tarixi haqida yetarli bilimiga ega bo'lmog'i lozim;

– talabalar yerli aholining qaysi urug'dan yoki qaysi urug'lardan iborat ekanligini bilib olishlari kerak. Tajribali, hayotning oq-qorasini tanigan qariyalardan urf-odatlarini, rasm-rusumlarini surishtirib, tartib bilan yozib olishlari lozim;

– sheva vakillari nutqiga tegishli dialektal ma'lumotlarni yozib olish. Yozib olingan dialektal matn tarkibidagi ayrim tushmasiz so'zlarning izohli lug'atini tuzish;

¹ Мирзиёев Ш.Орқин ва фарвон демократик Ўзбекистон диндорлиги бирлигида барпо этилди. Т. Ўзбекистон, 2016. 14-бет.

• yozib olingan shevaning matnlarini soʻzlarning oʻrnini almashtirmay, ortografik meʼyorga solmay, orfoepik holati qanday boʻlsa, shunday qogʻozga tushirish;

• yozib olingan dialektal matnlarning namunalarini tasnif qilish;

• yozib olingan rivoyat va afsona, qoʻshiq, maqol va boshqa sheva matnlarni tahlil qilish, gʻoyaviy-tarbiyaviy xususiyatlarini aniqlash.

Dialektologik amaliyotining boshqa fanlar bilan aloqasi

Ushbu amaliyot shevaning oʻziga xos xususiyatlarini tushunish uchun quyidagi fanlardan ham xabardor boʻlish talab qilinadi: hozirgi oʻzbek adabiy tili, til tarixi, adabiyot tarixi, folklor, etnografiya, sanʼatshunoslik, tarix.

Dialektologik amaliyotni oʻtkazishda yangi texnologiyalar

Dikt fon, videokamera, fotoapparat, ovoz yozib olish va tasvirga tushirish imkoniyati boʻlgan telefonlardan foydalaniladi.

Baholash tartibi

Talabalar amaliyot davrida toʻplagan dialektal materiallar quyidagi mezonlar asosida tekshirilib, baholanadi:

Yozib olingan matnlarning originalligi.	30 ball
Yozib olingan matnlarning variantlari.	20 ball
Yozib olingan matnlarning mukammalligi.	20 ball
Yozib olish prinsiplariga amal qilinishi.	20 ball
Dialektal matnlarning ilmiy pasportini toʻgʻri toʻldirish.	10 ball
JAMI	100 ball

Bunda:

90 dan 100 balgacha "5" baho;

70 dan 89 gacha "4" baho;

60 dan 69 gacha "3" baho;

0 dan 59 balgacha "2" baho.

II. ASOSIY QISM

2.1. Dialektologik amaliyotning tarkibiy qismlari

Dialektologik amaliyoti puxta tayyorgarlikni talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Talabalar dastlabki ilmiy-amaliy faoliyatga har tomonlama tayyor boʻlmoqlari lozim. Uning natijasi uni tayyorlash va oʻtkazish jarayonida bajariladigan ishlarning saviyasiga bogʻliq. Shuning uchun bu jarayonni uch bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Dialektologik amaliyotga tayyorlanish bosqichi.

2. Amaliyot davri.

3. Yakuniy bosqich.

1. *Dialektologik amaliyotiga tayyorgarlik bosqichi.* avvalo, "O'zbek dialektologiyasi" fanidan o'tiladigan ma'ruza va seminar mashg'ulotlari davomida bo'lajak dialektologik amaliyotning maqsad va vazifalarini ham nazarda tutish lozim. Shuning uchun ham talabalarga nazariy ma'lumotlar berayotgan paytda tahlil uchun olingan dialektal matnlarning xalq orasida mavjud ekanligi ta'kidlanadi.

Amaliyot davomida talabalarga o'z mahalliy hududida tarqalgan qo'shiq, maqol, afsona va rivoyatlardan namuna talabdagi miqdorda to'planadi. Shu usul bilan talabalarda sheva namunalari yozish, ilmiy tahlil qilish malakasi shakllantiriladi.

O'ZBEK SHEVA VA LAHJALARIGA OID MATERIALLARNI AMALIY O'RGANISH VA TO'PLASH

Sheva vakillari nutqini yozib olishda quyidagi mavzularda suhbatlarni tashkil qilish mumkin. Buning uchun ikki talaba sheva vakilini mavzuga oid so'zlashga da'vat etadi, ikki yoki uchta talaba sheva vakillarining nutqini yozishni boshlashadi. Bunda birinchi talaba shevada gapirayotgan odamning uchta gapini yozib olsa, keyingi talaba 4-, 5-, 6-gaplarni yozib oladi, 7-, 8-, 9-gaplarni esa birinchi talaba yozadi. Shu tarzda sheva vakillaridan suhbat yozib olinadi.

1. O'rganilayotgan shevaning qaysi o'zbek lahjasiga mansubligi.
2. Hududning nomi va ma'nolarini imkoniyat doirasida izohlash.
3. Sheva vakillarining o'ziga xos urf-odatlarini birma-bir yozib olish.
4. Sheva vakillariga xos o'g'il bolalarning o'yinlari nomini yozish.
5. Qiz bolalarning o'yinlari nomini sheva vakillari nutqidan yozish.
6. Sheva vakillariga xos o'yinlarning nomlarini ko'rsatish.
7. Sheva vakillariga xos kasb-hunarlarining nomlarini yozish.
8. Aholi nutqida uchraydigan xalq qo'shiqlardan namunalar yozish.
9. Sheva vakillari nutqida uchraydigan ertaklardan namunalar yozib olish.
10. Aholi nutqida uchraydigan doston(lar)dan namunalar yozish.

Yana sheva vakillari nutqidan yozib olinadigan dialektal matnlarni guruhlanga ajratish mumkin:

1) sheva vakillari (erkaklar) nutqidan yozib olingan dialektal matnlar quyidagi mavzularda bo'lishi o'rinni: "Ayyorlik", "Bog'dorchilik", "Baliqchilik", "Baliq ovi", "Bolalarimiz", "Bo'g'doypoya", "Baliqli taomlar", "Bolalik", "Bog'lar", "Bozor", "Bozorlik", "Vaqt", "Vaqt qadri" va boshqalar.

2) sheva vakillari (onaxonlar, ayollar) nutqidan yozib olingan dialektal matnlar quyidagi mavzularda bo'lishi ma'qul: "Ayollar odobi", "Ayol baxti", "Alla", "Qarg'ishlar", "O'lg'ishlar", "Yo'qlovlar" va h.k.

Sheva vakillari to'g'risidagi ma'lumotlar mazmunini shartli ravishda pasport yoki ma'lumotnoma deyish mumkin. Sheva haqida ma'lumot beruvchining nomi ham to'plangan sheva materiallari kabi sanasi ko'rsatilgan holda saqlanadi. Kitob va lug'atlarda ham berilishi mumkin bo'ladi. Masalan, sheva vakili to'g'risidagi ma'lumotnomaning tartib raqami, masalan, 1-ma'lumotnoma deb olinsa, unda quyidagilarning bo'lishi lozim:

1. Sheva vakili yashayotgan viloyat nomini yozish, uni izohlashga intilish.
2. Tuman nomining tarixiy va bugungi ko'rinishlarini izohlash.
3. Sheva vakili yashayotgan qishloq kengashi nomi va u to'g'risida ma'lumot.

4. Sheva vakili yashayotgan aholi punktlarining nomini ham yozish.
5. Sheva vakilining ismi-sharifi, bitsa, qaysi urug'ga mansubligini ko'rsatish.
6. Sheva vakillarining tug'ilgan yillari aniq yoziladi.
7. Sheva vakilining ma'lumoti, qayerlarda o'qigani, ishlagani haqida ma'lumotlar keltirilishi uchun shu mavzuda matnlarni yozish sharti.
8. Sheva vakilining qaysi yozuvlarni bilishi.
9. Sheva vakillarining hunari, kasbi-korini bilish uchun savollar berish.
10. Sheva vakilining kasbi hamda ish joyini yozib olish.
11. Shevaga oid materiallarni yig'ib olgan shaxsning talabaniing ismi-sharifi.
12. Sheva materiallari sheva vakillarining nutqidan talabalar tomonidan yozib olingan kun, oy va yil ham aniq ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.

SHEVALAR FONETIKASI BO'YICHA MISOLLAR TO'PLASHI

1. o-lashish va a-lashishning tarqalishi:
2. Birinchi darajali cho'ziq unilarning mavjud yoki mavjud emasligi: *at/a:t, jaz//jaz, ou/o:u/o:d* singari misollarni topish.
3. Ikkinchi darajali cho'ziqlik – ultra cho'ziqlik borligi: *shahar//sa:r* kabi misollarni aniqlash.
4. Singarmonizmning bor yoki yo'qligi, bo'lsa, lab garmoniyasi (singarmonizm)ning mavjud yoki mavjud emasligi misollarda ko'rsatish:
5. Kontrast juft unilarning mavjudligi yoki mavjud emasligi: /a (ā) – ā, ɪ – i, o – ō, u – ü. Masalan, *bol/bōl, qol/qōl* kabi.
6. Cho'ziq hamda qisqa unilarning mavjud yoki mavjud emasligi.
7. So'z boshida o'rta-tor va o'rta-keng unilarning diftonglashuvi /e, uo, ūō /: a) *ie – 'ecki // 'eski* kabi;
8. So'z boshida $j/3$ hodisasining tarqalishi: /*joq-3oq, /jol-3ol* singari.
9. Old va orqa qator unililar so'zlarni farqlashda ishlatiladimi?
10. *a//ā* mosligi uchraydimi? /*ajal-ājal, abir-ābro, majoz-mijoz, palānci-palānci* kabi.
11. *ō/e* mosligi uchraydimi? /*ōtūk-etik, ōcki-ecki* singari.
12. o unlisi u unlisi bilan almashadimi?
13. *e//u* mosligi uchraydimi? /*duvānā-duval/deval* kabi.
14. Tursun, turyun, kunduz, cumcu kabi so'zlardagi ikkinchi bo'g'indagi unli qanday talaffuz qilinadi?
15. Nutqda qo'llangan so'zlarda u va a tovushlarining almashinishi uchraydimi?
16. *e//i* hodisasi uchraydimi? /*ergās-irgās, endi-indi* singari misollarni aniqlash.
17. *e//u* hodisasi mavjudmi? /*deval-duval* kabi.
18. *ū/ō* hodisasi uchraydimi? /*ūj-ōj, kūjlak-kōjlak* singari.
19. *e//ō, ā* hodisasi mavjudmi? /*ecki-ōcku-ācku, etik-ōtuk* kabi.
20. So'z o'zagida ayrim tovushlarning takror kelishi uchraydimi? /*tepā-teppā, hāqim-hāqim* kabilarga misollar aniqlang.
21. Faqat shevada uchraydigan fonetik hodisalarning barcha turlariga misollar to'plang.
22. Kuchli fonetik tuzilishi o'zgarishga uchragan dialektal so'zlarga misollar keltiring.

SHEVALAR MORFOLOGIYASI BO'YICHA MATERIALLAR TO'PLASH

Keltirilgan savollarning har biriga 10 (o'nta)dan misollar yozishlari shart:

1. Kelishik turlarini hosil qiluvchi affiksning har bir fonetik variantlariga misollar yozing. Masalan, tushum kelishigi qo'shimchasining variantlari /-ni, -ni, -di, -di, -ti, -ti, -i, -i/ qaysi biri uchraydi? Qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari. Bu kelishiklarning ayrimlari bo'lmasa unga izoh bering va shevaning o'ziga xos turlanishidagi fonetik o'zgarishlarga izoh bering.

2. Ko'plik affiksi (lar) ning qanday variantlari mavjud? Masalan, -lar affiksining variantlari: uning ko'plik bilan birga yana qanday ma'nolari mavjud? -lar//lar yoki -la//la affikslari hurmat ma'nosida yakka shaxslarga nisbatan ham ishlatiladimi? /*dadāmla, ākāmā* / kabi.

3. Shevada egallik affikslarining qanday variantlari mavjud? /*māktāhimiz, māktāpimiz, māktāpivuz, ūjimiz, o'jivuz* kabilar.

4. Shevada sifat, son, olmosh so'z turkumlarining adabiy tildan farqlanuvchi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang. Masalan, ko'm-ko'k, kom-kov, kum-kuv kabi.

5. Erkalash - kichraytinish affikslari.

6. Jo'nalish, o'rin-payt chiqish kelishigi qo'shimchalari. Bu kelishiklarning ayrimlari bo'lmasa unga izoh bering va shevaning o'ziga xos turlanishidagi fonetik o'zgarishlarga izoh bering.

7. Sonning ma'no turlarini hosil qiluvchi affikslar.

8. Olmosh turlarini yozing

9. O'tgan zamon fe'llari turlanishiga misollar yozing (5 ta shakl).

10. Hozirgi zamon fe'llari turlanishiga misollar yozing (2 ta shakl).

11. Kelasi zamon fe'llari turlanishiga misollar yozing (3 ta shakl).

12. Fe'llarning ravishdosh shaklini hosil qiluvchi affikslar va ularning variantlarini yozing.

13. Fe'llarning sifatdosh shaklini hosil qiluvchi affikslar va ularning variantlarini yozing.

14. Fe'llarning harakat nomi shaklini hosil qiluvchi affikslar va ularning variantlarini yozing.

15. To'liqsiz fe'lning quyidagi formalaridan qaysi biri ishlatiladi: edi (di//di), ckān (kān, ākān), cmīs (cmus//mus, mīs)?

16. Bilan ko'makchisining tarqalishi: kim b'len, kim minān, k'm m'nen, kimmen, kūmmen kabilar.

17. Lekin ko'makchisining qanday dialektal variantlari uchraydi?

18. -ni//mī//mī//ma//mā//nā so'roq yuklamalarining tarqalishini aniqlang: bērm//bērna//barna//kelād'm//kelāmā kabilarga misol yozing.

19. Adabiy tildagi so'z yasovchi affikslardan farqli dialektal so'z yasovchilar.

20. Tovushga taqlid so'zlarning qanday turlari mavjud?

21. Shevangizdagina uchraydigan turli qo'shimchalar haqida to'xtalng.

SHEVALAR LEKSIKASI BO'YICHA MATERIALLAR TO'PLASH

Talaba o'rganayotgan sheva materiallari asosida quyidagi savollarning har biriga 10 (o'nta)dan misol yozishi lozim:

1. Shevangizga xos tovush o'zgarishlariga uchragan so'zlarni yozing.

2. Shevada qanday emotsional soʻzlar mavjud?
3. Shevangizga oid 30ta maqtoʻv soʻzlarini yozing.
4. Zid maʼnoli (antonimlar) soʻzlarni qayd eting.
5. Shevangizga xos boʻlgan qarqʻish soʻzlarini yozib oling.
6. Sheva vakillari nutqida uchraydigan omonimlarni toʻliq yozib olishga harakat qiling.
7. Mazkur shevada uchragan sinonimlarni misollar bilan birma-bir yozib oling.
8. Sheva hududidagi joy nomlari – toponimlarni yozing va izobini, maʼnotlarini soʻrang.
9. Sheva hududida uchrovchi gidronimlar.
10. Sheva vakillari yashayotgan hududga xos tarixiy inshoot va binolarning, masjidning nomlarini yozib, izohlang.
11. Sheva vakillari nutqiga xos qabriston nomlari.
12. Shevada mavjud boʻlgan hududda uchrovchi etnografik nomlar.
13. Shevada uchrovchi qarindosh-urugʻchilik atamalari.
14. Sheva vakillari nutqidagi uy-roʻzgʻor buyumlarining nomlari.
15. Shevaga oid kelin salomlar hamda ularga xos soʻz va iboralar.
16. Shevadagi tez aytishlar va ularga soʻz va iboralar.
17. Shevada qoʻllanuvchi oziq-ovqat nomlari, ularga tegishli soʻz va iboralar.
18. Shevada ishlatilayotgan kiyim-kechak nomlari, ularga oid soʻz va iboralar.
19. Sheva vakillari nutqida qoʻllanuvchi ish-qurollarining nomlari, ularga xos boʻlgan soʻz va iboralarni yozish.
20. Shevada qoʻllanuvchi zeb-ziynat nomlari va boshqalar.
21. Adabiy til va boshqa shevalarda qayd etilmagan dialektal soʻzlarni yozish.
22. Sheva vakillaridan ertak, maqol va iboralar, tez aytishlar, topishmoq xalq qoʻshiqlarini yozib olish.

60230100 – Filologiya va tillarni oʻqitish (oʻzbek tili) yoʻnalishi 2-kurs talabarlari uchun “Oʻzbek dialektologiyasi” fanidan dialektologik amaliyotni oʻtkazish

KALENDAR REJASI

№	Amaliyot davrida bajarilgan ishlar mazmuni	Ajratilgan soatlar	Bajarilganligi haqida belgi
1	Talabalarga dialektologik amaliyotni oʻtkazishga doir muhim tavsiya va topshiriqlarni berish. Xavfsizlik qoidalariga amal qilishni tushuntirish.	6	
2	Belgilangan sheva hududiga borish, mazkur hudud (tuman, mahalla, qishloq) rahbarlari bilan tanishish.	6	
3	Sheva hududidagi joy nomlari (hozirgi va eski), muqaddas qadamjo, ziyoratgoh, qabriston, tepalik, daryo, adir, togʻ nomlarining kelib chiqish tarixini oʻrganish va ularni qayd qilish.	6	
4	Belgilangan hudud sheva vakillari bilan tanishish, sheva materiallarini qayd qilib borish. Sheva vakillaridan ogʻzaki ertak, rivoyat, hikoya	6	

	ko'rinishdagi materiallarni audio (video) shaklda yozib olish		
5	Belgilangan hudud sheva vakillari bilan tanishish. sheva materiallarini qayd qilib borish. Sheva vakillaridan og'zaki ertak, rivoyat, hikoya ko'rinishdagi materiallarni audio (video) shaklda yozib olish	6	
6	Belgilangan hudud sheva vakillari bilan tanishish. sheva materiallarini qayd qilib borish. Sheva vakillaridan og'zaki ertak, rivoyat, hikoya ko'rinishdagi materiallarni audio (video) shaklda yozib olish.	6	
7	Belgilangan hudud sheva vakillari bilan tanishish. sheva materiallarini qayd qilib borish. Sheva vakillaridan og'zaki ertak, rivoyat, hikoya ko'rinishdagi materiallarni audio (video) shaklda yozib olish.	6	
8	Audio (video) shaklda yozib olingan materiallarni transkripsiyada qayd qilish (qo'lda yoki elektron). Mazkur dialektologik matnni lingvistik jihatdan (fonetik, morfologik, leksik, qisman sintaksis) tahlil qilish	6	
9	Audio (video) shaklda yozib olingan materiallarni transkripsiyada qayd qilish (qo'lda yoki elektron). Mazkur dialektologik matnni lingvistik jihatdan (fonetik, morfologik, leksik, qisman sintaksis) tahlil qilish	6	
10	Audio (video) shaklda yozib olingan materiallarni transkripsiyada qayd qilish (qo'lda yoki elektron). Mazkur dialektologik matnni lingvistik jihatdan (fonetik, morfologik, leksik, qisman sintaksis) tahlil qilish.	6	
11	Dialektologik amaliyot yuzasidan shu kungacha ikki haftalik olib borilgan ishlar sarhisobini yuzasidan hisobot tayyorlash. Amaliyot rahbariga onlayn tarzda hisobot berish.	6	
12	Dialektologik matn holiga keltirilgan audio (video) materiallaridan kelib chiqib, shevaning o'ziga xos fonetik, leksik, morfologik jihatlari yuzasidan so'rovnomaga tayyorlash.	6	
14	Tayyorlangan anketa asosida sheva vakillaridan so'rovnomaga olish va qayd qilib borish.	6	
15	Tayyorlangan anketa asosida sheva vakillaridan so'rovnomaga olish va qayd qilib borish.	6	
16	To'plangan anketa materiallari va dialektologik matnlar asosida shevaning fonetik xususiyatlari (unlilar, undoshlar tizimi, fonetik qonuniyat va jarayonlar) haqida umumiy ma'lumot tayyorlash.	6	
17	To'plangan anketa materiallari va dialektologik matnlar asosida shevaning morfologik (ko'plik, egalik, kelishik, shaxs-son, zamon va h.k.) xususiyatlari haqida umumiy ma'lumot tayyorlash.	6	

18	To'plangan anketa materiallari va dialektologik matnlar asosida shevaning leksik xususiyatlari haqida ma'lumot tayyorlash	6	
19	Yig'ilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, sheva xususiyatlari haqida xulosa berish		
20	Amaliyot yuzasidan yakuniy hisobot tayyorlab, fakultetdagi amaliyot rahbariga topshirish va o'zi to'plagan reyting balni bilish. Amaliyot bo'yicha o'tkaziladigan yakuniy anjumanga qatnashish.	6	

DIALEKTOLOGIK AMALIYOTGA BORISH UCHUN TEXNIKA XAVFSIZLIGI QOIDALARI

1. Malakaviy amaliyotga borgan talabalar texnika xavfsizligiga amal qilishi shart.
2. Ko'chada yurganda yo'l-transport qoidalariga amal qilish.
 3. Elektr jihozlariga so'roqsiz, ruxsatsiz tegmaslik.
 4. So'roqsiz, ruxsatsiz begonalarning mashinalariga minmaslik.
 5. Gaz asboblardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish.
 7. Faqirlangan joylarda cho'milmaslik.
 8. Ariqdagi suvdan foydalanmaslik.
 9. Faqirlangan joylarda yurmaslik.
 10. Begona odamlar bilan subhatlashmaslik.
 11. O'rganilayotgan hududdan ruxsatsiz holatda yakka o'zi chiqib ketmaslik.
 12. Jamoat tartibini buzmaslik.
 13. Keskir asboblardan noo'rin foydalanmaslik.
 14. Yana boshqa texnik xavfsizlik talablariga amal qilishlari lozim.

DIALEKTOLOGIK AMALIYOTNING BAJARILISHI TO'G'RIDATALABA(LAR)NING HISOBATI

Talabalarining malakaviy amaliyotning yakuni to'g'risidagi ushbu hisobotida quyidagilar o'z ifodasini topishi shart:

1. Sheva materiallari yig'ilgan hudud va amaliyotning muddati to'g'risida ma'lumotni yozish kerak.
2. Sheva o'zbek tilining qaysi lahja yoxud shevalar guruhiga mansub ekanligi.
3. Shevaga xos fonetik va leksik o'zgarishlar to'g'risida munosabat bildirib o'tish.
4. Qishloq, ovullarning tuman hamda shahar markazidan qanchalik uzoqligi.
5. Bu yerda sheva vakillari bilan yana qanday millat, elat vakillari istiqomat qilishlari.
6. Mazkur shevaning shu guruh shevalaridan o'zigagina xos xususiyatlari.
7. Shevada boshqa tilning ta'siri bor yoki yo'qligini misollarda ko'rsatish.

8. Bu sheva oldin biror-bir olim tomonidan o'rganilganmi, yo'qmi?
9. Sheva oldin o'rganilgan bo'lsa, qaysi xususiyatlari e'tibordan chetda qolgan?
10. Amaliyot jarayonida sheva xususiyatlari haqida tug'ilgan fikr-mulohazalar yozib boriladi.
11. Mazkur amaliyotni tashkil etish hamda uni o'tkazish yuzasidan bildiriladigan takliflar ham iloji bo'lsa yozib olinsa, yaxshi bo'ladi.
12. Fayl papkada to'plangan sheva materiallari yig'iladi va tartib bilan joylashtiriladi.
13. Ushbu amaliyotning kundaligi amaliyot kunlari asosida to'ldirib boriladi.
14. Sheva vakillari bilan birga tushilgan 2-3ta rasm izohi fayl papkada bo'lishi kerak.
15. Talaba amaliyot hisobotini belgilangan vaqtda referat shaklida amaliyot rahbarlariga yetkazish shart, aks holda bahorgi imtihonlardan qarzdor sifatida qoladi va keyingi muddatda qayta topshiradi.

III. O'quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati **Asosiy adabiyotlar**

1. Ashirboev S. O'zbek dialektologiyasi - Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Ренетов В.В. Шоабдурахмонов Ш. Узбек диалектологияси. -Ташкент: Укитувчи, 1978.
3. To'ychiyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
4. Unazarov T., Karimjonova V. va boshqalar. O'zbek dialektologiyasi: nazariya va amaliyot. -Toshkent: "Mahalla va oila", 2021.
5. Fayzullayev B., To'ychiyev A., Haydarov Sh., Xidirov O. O'zbek shevashunosligidan o'quv amaliyoti. (o'quv-uslubiy qo'llanma) Jizzax. 2010

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda harpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
7. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent : O'zbekiston, 2017. – 104 b
8. Ареальные исследования в языкознании (отв. ред. Толстогй Н.И.) -Л.; 1983
9. Баскаков Н. А. Задачи составления тюркских ареальных исторических диалектологических атласов // Советская тюркология. 1982. Вып. 3. -С. 3-9.
10. Begaliev M. D. O'zbek tilining Qorabuloq shevasi leksikasi. -Toshkent: Iqtisod-Moliya. 2007.
11. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. - Тошкент: 1991.
12. Жураев Б. Узбек адабий тили ва диалектлари. - Тошкент: Фан, 1963.

13. Murodova N. O'zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi. - Toshkent: Fan, 2005.
14. Nafasov T. Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari. - Toshkent: Muxarrir, 2011.
15. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. - Toshkent: Уюгувчи, 1996.
16. Решетов В. В. Ўзбек диалектларини монографик планда урганиш // УГА. 1960. 1-сон.
17. Решетов В.В. О диалектной основе узбекского литературного языка // Вопросы языкознания. - Москва, 1955.
18. Решетов В.В. Ўзбек шевалярининг классификацияси // УГА. 1966.
19. Шоабдурахмонов Ш.Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шеваляри. - Toshkent: Уқитувчи, 1962.
20. Shoimova N. Qashqadaryo o'zbek qirchoq shevalari leksikasi. - Qarshi: Nasaf, 2000.
21. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. I-қисм. - Toshkent: Fan, 1957.
22. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. I-қисм. - Toshkent: Fan, 1960.
23. Ўзбек шеваляри морфологияси. - Toshkent: Fan, 1984.
24. Ўзбек шеваляри лексикаси. - Toshkent: Fan, 1991.
25. Лингвистический энциклопедический словарь. - М., 2002.
26. Enazarov T.J., Abdullayev X. T. Dialektologik amaliyot so'roqligi. - Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2019. 70 b.

Internet saytlari

1. [http://www.ut.uz/eng/today/europe recognizes her discovery.mgr](http://www.ut.uz/eng/today/europe%20recognizes%20her%20discovery.mgr)
2. <http://www.uzbekistan.be/press-releases/14-2008.html# 6 SOCIETY>
3. <http://www.sfs.uni-leipzig.de/~lothar/lexbuch/Seminar01/skripte/onomasio.html>
4. <http://www.schmid9.de/sprache/linguistik/ling1.pdf>
5. <http://www.uni-leipzig.de/~lsget/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>